



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2025-yil “24”-dekabr

519-son

Toshkent shahri

**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligida manfaatlar to‘qnashuvining oldini
olish bo‘yicha ishlarning samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-son qarorining (keyingi o‘rinlarda – Qaror) 1-ilovasi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda – Qonun) 10-moddasiga muvofiq

BUYURAMAN:

1. Qarorning 1-ilovasiga muvofiq, davlat organlari va tashkilotlarining tizimidagi tarkibiy tashkilotning shtatlar soni 100 ta va undan kam bo‘lsa hamda tarkibiy tashkilotning o‘zida hududiy yoki tarkibiy tashkilotlar mavjud bo‘lmasa, ushbu tarkibiy tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati davlat organi va tashkilotining markaziy apparatidagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qaroriga muvofiq, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi, Bilim va malaklarni baholash agentligi, Kasbiy ta’lim agentligi hamda Oliy attestatsiya komissiyasining korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi alohida baholanishini inobatga olib, ushbu tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati o‘z korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmasi, ushbu bo‘linma mavjud bo‘lmagan holda mazkur yo‘nalishdagi vazifalarni bajarish yuklatilgan xodimlar tomonidan amalga oshirilishi;

korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmasi mavjud bo‘lmagan tizim tashkilotlari hamda davlat ta’lim tashkilotlarida manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish Qonunning 3-moddasiga asosan kadrlar bo‘linmalariga yuklatilishi belgilansin.

2. Qonunning 18-moddasiga asosan shunday tartib o‘rnatilsinki, **har yili 15-yanvarga qadar Vazirlik markaziy apparati hamda tizim tashkilotlarining** (Innovatsion rivojlanish agentligi, Bilim va malaklarni baholash agentligi, Kasbiy

ta’lim agentligi hamda Oliy attestatsiya komissiyasi bundan mustasno) oxirgi marta deklaratsiyani taqdim etganidan so’ng, shaxsga doir ma’lumotlari o’zgargan **boshqaruv xodimlari** Vazirlik korrupsiyaga qarshi kurashish bo’limiga ehtimoliy manfaatlar to’qnashuvi to’g’risidagi to’ldirilgan va imzolangan deklaratsiyani taqdim etsin.

3. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining “O’zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to’qnashuvi to’g’risida”gi Qonuni tatbiq etiladigan tashkilot va muassasalar ro’yxatini tasdiqlash to’g’risida” 2024-yil 28-oktabrdagi 399-son burug’i ilovasi ilovaga muvofiq yangi tahrirda bayon etilsin.

4. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o’z zimmamda qoldiraman.

Vazir



K. Sharipov



Hujjat haqiqiyligini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin